



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 28-oktabr, № 230 (8573)

**Shanba** Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## GEOLOGIYA SOHASIDAGI ISHLARNING JORIY HOLATI VA ISTIQBOLLARI KO'RIB CHIQLDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-oktabr kuni geologiya ishlarini kengaytirish, foydali qazilmalarning istiqbolli konlarini aniqlash va o'zlashtirish rejalariga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishdi.**

Mamlakatimizda sanoatni rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan katta marralarga erishishda iqtisodiyotni mineral resurslar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda dourisida geologiya sohasini transformatsiya qilish doirasida uning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, ilmiy izlanishlar va kadrlar tayyorlash kuchaytirildi.

Taqdimotda sohada qilingan ishlar, foydali qazilmalarni aniqlash va o'zlashtirishga xorijiy hamkor va investorlarni jalb qilish rejalarini ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda geologiya-qidiruv ishlari oldingi davrdagiga nisbatan 3 barobar oshdi. 3D seysmorazvedka, aerogeofizika, kosmogeologiya, raqamli geologiya kabi ilg'or usullarni joriy etish boshlandi. Geologiya fanlari universiteti tashkil etilib, hozirgi kunda 1,5 ming nafar yosh zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallamoqda.

Shuningdek, geologiya ishlari sohasidagi loyihalarga xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qonunchilik bazasi takomillashtirildi va boshqa zarur sharoitlar yaratildi.

Buning hisobiga konlarni izlash va o'zlashtirish bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar soni 4 barobarga ko'paydi. Joriy yilning o'zida geologiya ishlariga 180 million dollar xorijiy investitsiyalar kiritildi, amalga oshirilayotgan loyihalarning umumiy qiymati esa 2 milliard dollardan oshdi.

Davlatimiz rahbari hisobotni tinglab, kelgusi yilda geologiya-qidiruv sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab berdi.

O'ZA.

## EL-YURT OSOYISHTALIGI YO'LIDA MEHNAT QILISH — OLIY MAQSADIMIZ

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tinchlik-osoysishtalikni yanada mustahkamlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda, ayniqsa, ichki ishlar idoralari zimmasiga katta mas'uliyat yuklangan.

### Dil so'zi

2005-yil hayotimda unutilmas iz qoldirdi. Boisi shu yili orzuim amalga oshib, ichki ishlar sohasiga qabul qilindim. O'shanda bir umr haydovchilik kasbidagi mehnat qilib nafaqaga chiqqan otam "Bolam, davlatimizning yuksak ishonchini oqlash hamda sharaflini kasb sha'niga dog' tushirmaslik uchun hamisha halol bo'l, sidqididan mehnat qil" degandi. Bu o'g'itga amal qilib kam bo'lmadim.

Ish faoliyati samaradorligi sharoitining yetarli bo'lishiga ham bog'liq, albatta. Shu mas'nada, ichki ishlar organlari xodimlariga xizmat va yashash

sharoitlarini yaxshilash bo'yicha keng ko'lami tadbirlar amalga oshirilayotgani e'tiborga molik. Ayniqsa, so'nggi yillarda tizimda keng ko'lami hayotbaxsh islohotlar amalga oshirildi. Ichki ishlar organlari xalqimizning chinakam himoyachisi va ko'makchisiga, yurtimizdagi tinchlik va osoysishtalikni, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylandi. Patrul-post xizmati, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida jahon andozalariga mos faoliyat yo'lga qo'yildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — jinoyatchini jazolash emas, jinoyatning oldini olish.

➡

## YER HISOBI VA KADASTR XIZMATLARINI YAXSHILASH CHORALARINI BELGILANDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-oktabr kuni yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlarini yaxshilash masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.**

So'nggi yillarda bu sohada katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, topografik o'lchovlar uchun Kadastr agentligi maxsus samolyot va aerofotokamera, 112 ta dron bilan ta'minlandi. Sohani raqamlashtirish uchun 6 ta axborot tizimi va ma'lumotlar markazi ishga tushirildi.

Bularning hisobiga o'tgan uch yilda 96 foiz yerlarning elektron xaritasi yaratildi. 40 million gektar yer ro'yxatga olinib, soliq bilan bog'landi. Avval hisoblanmagan 790 mingta yangi va 520 mingta qo'shimcha qurilma tizimga kirdi. Bular orqali byudjetga 1,1 trillion so'mlik manba yaratildi.

Shuningdek, zaxiradagi 1,2 million gektar qishloq yerlariga kadastr qilingani hisobiga 675 ming aholi va fermerga 425 ming gektar yer bo'lib berildi.

Shu bilan birga, sohada hali qilinadigan ishlar ham ko'p. Xususan, 146 ming kilometr ichki yo'llar va atrofidagi yerlarning hujjati yo'q.

Suv xo'jaligida ham shu ahvol. Suv havzalari, kanal va kollektorlar atrofidagi bo'sh yerlarni avksion orqali aholi va tadbirkorlarga berish mumkin. Lekin bugungi kunda 827 ming gektar suv fondi yerlaridan faqat 380 ming gektarining kadastr hujjatlari bor.

Shu bois yo'l va suv fondi yerlari kadastrini yakunlab, ulardan foydalanishga sharoit yaratish bo'yicha ko'rsatma berildi. Bu orqali 1 million aholi bandligini ta'minlash mumkinligi ta'kidlandi.

Hisob-kitoblarga ko'ra respublikada 2,4 millionta xonadonning egalik hujjati yo'q. Ularning kadastr hujjati qilinsa, odamlarga huquqiy, iqtisodiy zamin bo'ladi. Shu bois hujjatsiz uy-joylarga egalik huquqini berish bo'yicha qonun loyihasi yakuniga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Shuningdek, aholi uzoq yillardan buyon uy-joy sifatida foydalanib kelayotgan, lekin hujjatda qishloq

xo'jaligi yerlari bo'lib qolayotgan 817 ming gektar yerni xatlovdan o'tkazib, yer toifasini o'zgartirish taklifi bildirildi.

Kadastr tizimida ish hajmi ko'pligi ham dolzarb masala. Bu yil 1,5 millionta kadastr xizmati ko'rsatilgan bo'lsa, shundan 600 mingtasi kadastr yig'ma jildi bilan bog'liq. Tizimdagi 25 foiz xodim shu bilan band. Ularga ish yuklamasi ikki barobar ko'p.

Bu borada Toshkent shahri va Toshkent viloyatida tajriba tariqasida xususiy kadastr muhandisi instituti joriy etildi hamda 165 ta xususiy kadastr muhandisi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Endi bu faoliyatga xususiy sektorni

jalb qilish nazarda tutilmoqda. Odamlar istasa xususiy sektor, istasa davlat idorasiga murojaat qilishi mumkin bo'ladi. Buning uchun ko'chmas mulklar yangi "UZKAD" axborot tizimiga o'tkaziladi, 2024-yil 1-iyuldan respublikaning barcha hududida xususiy kadastr muhandislar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Davlatimiz rahbari kadastr xizmatlari qamrovi va sifatini oshirish, buning uchun malakali kadrlar tayyorlash, sohani ilm-fan bilan uyg'unlashtirish va raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi.

O'ZA.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING QIRQ OLTINCHI YALPI MAJLISI TO'G'RISIDA AXBOROT



27-oktabr kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qirq oltinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisi Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Dastlab senatorlar "Probatsiya to'g'risida"gi qonunni ko'rib chiqdi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlarni inobatga olgan holda probatsiya xizmati faoliyati yo'lga qo'yildi.

Probatsiya xizmati huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga barham berishga, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlashga, bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga.

Jumladan, 2021-yilda probatsiya bo'linmalari nazorati ostidagi shaxslar tomonidan 1086 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 845 tani, 2023-yilning 9 oyida esa 353 tani tashkil qilgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish, ozodlikni cheklash, muayyan huquqdan mahrum qilish va majburiy jamoat ishlari jazolarini ijro etish, shuningdek, shartli hukm qilingan va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat qilishni tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjat mavjud emasligi huquqiy bo'shliq va ayrim hollarda ziddiyatlarga olib kelmoqda.

Shu boisdan ushbu qonun bilan probatsiyani amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni, jumladan, probatsiya tizimining asosiy tushunchalari, probatsiya nazoratidagi shaxslarning huquqiy holati, probatsiya nazorati va ijtimoiy moslashtirish shakllarini qo'llash tartibi, probatsiya

nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini baholash mezonlari, ularga nisbatan elektron kuzatuv vositasini qo'llash masalalari tartibga solinmoqda.

Xususan, probatsiyani amalga oshirish sohasida Hukumat, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining vakolatlari aniq belgilab qo'yilmoqda.

Probatsiya nazoratini amalga oshirishga ko'maklashuvchi subyektlar jumlasiga mehnat organlari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalari, ta'lim sohasidagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va ta'lim tashkilotlari, Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari kiritilmoqda.

Shuningdek, probatsiya nazoratidagi shaxslarga ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularning ta'lim olishiga, kasb-hunar o'rganishiga va ishga joylashishiga ko'maklashish vositasida jamiyatning to'la huquqli a'zosisga aylinishiga qaratilgan faoliyat tartibga solinmoqda.

Probatsiya nazoratidagi shaxslarga ijtimoiy va huquqiy yordam ko'rsatish, jumladan, tuman (shahar) probatsiya bo'linmalarining vakolatlariga kirmaydigan ijtimoiy va huquqiy masalalar bo'yicha probatsiya nazoratidagi shaxslarga tuman (shahar) probatsiya bo'linmalarining yo'llanmasi asosida davlat organlari tomonidan ijtimoiy va huquqiy yordam

ko'rsatilishi nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat qilish uchun elektron kuzatuv (elektron braslet) vositasini taqish va yechish hamda foydalanish tartibi belgilanmoqda.

Jumladan, elektron kuzatuv vositasi (elektron braslet) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga, tibbiy ko'rsatmalarga ko'ra elektron kuzatuv vositasini (elektron brasletni) taqish tavsiya etilmaydigan boshqa shaxslarga qo'llanilishi mumkin emas.

Senatorlarning ta'kidlashicha, mazkur qonunning qabul qilinishi probatsiya tizimidagi huquqiy bo'shliq va ziddiyatlarni bartaraf etishga, milliy xususiyatlar va sharoitlarni e'tiborga olgan holda xalqaro standartlarni va ilg'or xorijiy tajribani implementatsiya qilishga, shuningdek, probatsiya amaliyotida yuzaga kelayotgan masalalarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan so'ng yalpi majlisda "Yo'l harakati to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun bilan yo'l egasining huquq va majburiyatlari, transport vositalari egalari qonun yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga doir majburiyatlari hamda mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan haydovchilarning huquqlari alohida moddalar bilan belgilanmoqda.

➡

### Biz va jahon

## BMTD "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA KO'MAKLASHISHGA TAYYOR

O'zbekistonning BMTdagi doimiy vakili Ulug'bek Lapasov Nyu-York shahrida BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) rahbari Axim Shtayner bilan uchrashdi.

Muzokaralar chog'ida O'zbekiston va BMTTD o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, xususan, kambag'allikni qisqartirish va Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ga erishish bo'yicha mamlakat xavfzalarini bajarishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish istiqbollari atroflicha muhokama qilindi.

BMT Taraqqiyot dasturi rahbari O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda sezilarli muvaffaqiyatga erishayotganini qayd etdi. Shuningdek, u BRMga erishish uchun Markaziy Osiyoda birinchi suveren obligatsiyalar chiqarilishini olqishladi.

Axim Shtayner BMTD "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirishda ko'mak berishga tayyorligini hamda mamlakat uchun muhim bo'lgan sohalarida turli loyihalar ijrosida O'zbekiston hukumati bilan yanada yaqin hamkorlik qilishga intilishini tasdiqladi.

"Dunyo" AA.  
Nyu-York

### Deputatlar — hududlarda

## KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASINING MAZMUN-MOHIIYATI

AHOLI BILAN MULOQOTLARDA KENG TUSHUNTIRILMOQDA

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining o'z saylov okruglarida uchrashuvlari bo'lib o'tmoqda. Xalq bilan o'tkazilayotgan ochiq muloqotlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, shu jumladan, parlamentda qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazishda, fuqarolarni o'ylantirib kelayotgan masalalarni o'rganish va ularga ijobiy yechim topish choralarini ko'rishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Aralash saylov tizimi: ahamiyati va afzalliklari**

Jizzax davlat pedagogika universitetida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi rahbari Alisher Qodirov hamda bir guruh deputatlarning talabalar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot chog'ida shu kunlarda quyi palatada qizg'in muhokama qilinayotgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi mahiyati, aralash saylov tizimining afzalliklari xususida so'z yuritildi.

Majoritar tizim shundayki, unda saylovchilar tomonidan eng ko'p ovoz olgan nomzodlar parlamentga saylanadi, — dedi

Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari A. Qodirov. — Bizda amaldagi saylov tizimi majoritar tizim hisoblanadi. Proporsional saylovda esa partiyalar va ularning o'goyalari musobaqaga kirishadi va saylovchilar ham partiyalarga ovoz beradi. Saylovchi proporsional saylov tizimida o'zi tanlagan partiyaga ovoz bergandan keyin muayyan masaladagi murojaat uchun aniq manzilga ega bo'ladi. To'g'ri, deputatlar ham saylovchilar oldida hisobdor, ularning murojaatlari bilan mintazam ishlaydi. Ammo siyosiy partiyalarning imkoniyati, salohiyati katta. Joylardagi tashkilotlari orqali saylovchilar bilan yaqindan aloqada bo'lib, ishlash imkoniga ega.

Talaba yoshlar hamda universitet professor-o'qituvchilari qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirar ekan, o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldi.

➡

## YOSHLAR — JAMIYAT TARAQQIYOTINING HAL QILUVCHI KUCHI

"Biz uchun jamiyatda begona bola yo'q va bo'lmasligi kerak". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan aytilgan ushbu so'zlar davlatimiz rahbari so'nggi yillarda ilgari surgan yoshlar masalasi bo'yicha 20 dan ortiq milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslarning izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgani misolida o'zining yaqqol amaliy tasdig'ini topmoqda.

### Nuqtai nazar

Yaqinda poytaxtimizda "Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari" mavzuida xalqaro forum o'tkazilgani davlatimiz rahbarining bu boradagi yana bir tashabbusi ro'yobga chiqqanidan dalolat beradi. Chunki Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 75 yilligi va Inson huquqlari bo'yicha Vena butunjahon konferensiyasining 30 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ushbu xalqaro anjuman O'zbekiston Prezidentining shu yil 12-maydagi Farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturida ko'zda tutilgan.

Forumni o'tkazishdan asosiy maqsad,

avvalo, yoshlar huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish uchun xalqaro hamda mintaqaviy vosita va mexanizmlarning qo'llanilish sohasini xolis tahlildan o'tkazishdan iborat bo'lib, bu borada yoshlar huquqlari va imkoniyatlarini himoya qilish mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo'yicha atroflicha o'zaro fikr almashilgani ayni muddao bo'ldi.

Jahon anjumani doirasida, shuningdek, yoshlar huquqlarini himoya qilish muhimligi borasida jamiyatning xabardorligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Yanada muhimi, yoshlar huquqlarini himoya qilishning eng maqbul amaliyoti va samarador mexanizmlari muhokama qilindi hamda bu yo'nalishdagi ilg'or tajribalar o'rganildi.

➡



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATNING QIRQ OLTINCHI YALPI MAJLISI TO'G'RSIDA AXBOROT

Senatorlar yo'ning ta'mirlash ishlari olib borilayotgan uchashtalarida yo' harakatini tashkil etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratadi. Xususan, qonunga ko'ra yo' uchashtalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash yoki ta'mirlash bo'yicha ishlar bajarilayotganda yo'ning mazkur uchashtalaridagi qatnov qismining ko'pi bilan 50 foizi o'tish uchun cheklanishi yoki yopilishi mumkin. Yo' uchashtalarida qatnov qismining 50 foizdan ko'prog'ini yopish zarur bo'lgan taqdirida mazkur yo' uchashtalarini aylanib o'tish ta'minlanishi kerak.

Qonun bilan ko'p kvartirali uylarga tutash hududlarining belgilanishini chegaralarida to'xtab turish joylarini qurish to'g'risidagi qarorlar hududni rejalashtirish bo'yicha tasdiqlangan hujjatlarga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinishi belgilanmoqda. Bunda qurilish ishlari shaharsozlik normalari va qoidalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. To'xtab turish joylarini joylashtirish ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda atrof-muhitga, aholining sog'lig'iga va o'soyishtaligiga salbiy ta'sirni kamaytirish hisobga olingan holda amalga oshirilishi qayd etilmoqda.

Qonun bilan elektr dvigatelda ishlaydigan transport vositalari uchun alohida joylar ajratilishi va bunday joylarda elektr quvvat manbalariga ulanish imkoniyati yaratilishi mumkinligi belgilanmoqda.

Shuningdek, qonunda pulli to'xtab turish joylari doir talablar, pulli to'xtab turish joylari egalarning huquq va majburiyatlariga ham alohida modda bilan belgilanmoqda.

Majlisda yo'l harakati ishtirokchilarining huquq va majburiyatlariga alohida urg'u berilib, qonunda transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi normalar hamda haydovchilarni tayyorlashga doir talablar belgilanayotganligi, transport vositalarini boshqarish huquqi qaysi hollarda bekor qilinishi mumkinligi ko'rsatib o'tilganligi qayd etildi.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonun yo'llarda yurtdoshlarimiz xavfsizligini ta'minlash, yo'l harakatini to'g'ri va tizimli yo'lga qo'yish, mutasaddi organlar o'rtasida samarali hamkorlikni joriy etish, shuningdek, yo'l harakati ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoyalashga xizmat qiladi.

"Yo'l harakati to'g'risida"gi qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Senatning qirq oltinchi yalpi majlisida sud qarorlarining qonuniyligi va asosliqligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual, Iqtisodiy protsessual kodekslarga, Ma'muriy sud ishlarini yuritish va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi to'rtta qonun muhokama qilindi.

Kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlari shikoyat (protest) asosida apellyatsiya tartibida, qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari, agar ular apellyatsiya tartibida ko'rilgan bo'lsa, kassatsiya tartibida, apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan sud qarorlarini taftish tartibida ko'rish belgilanmoqda. Qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini kassatsiya

tartibida ko'rib chiqish vakolati viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar vakolatiga o'tkazilmoqda.

Sud qarorlarini qayta ko'rish bosqichlariga taftish instansiyasi kiritilishi munosabati bilan Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual kodekslarga, Ma'muriy sud ishlarini yuritish va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarda taftish instansiyasida ish yuritish tartibi batafsil yoritilmoqda.

Jumladan, qonun bilan Fuqarolik protsessual kodeksiga sud ishlarini ko'rishning o'ta markazlashtirilishiga barham berilishini, ishlarini viloyat sudlarida va ularga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya va taftish tartibida ko'rish bosqichlari joriy etilishini, ishlar Oliy suda taftish tartibida hamda Oliy sudning Rayosatida qayta ko'rilishini, yuqori turuvchi sudlar tomonidan quyi sudlarning bekor qilingan qarorlarini yangidan ko'rish uchun qaytadan ushbu sudlarga yuborish tartibi chiqarib tashlanishini, har bir sud instansiyasining zimmasiga ish bo'yicha yakuniy qaror chiqarish majburiyati yuklatilishini, sud qarorlarini qayta ko'rish bosqichlariga taftish instansiyasi joriy etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, amaldagi yuqori instansiya sudlari tomonidan quyi instansiya sudlarining qarorini bekor qilgan holda yangidan ko'rish uchun yana quyi sudga yuborish tartibi bekor qilinib, har bir sud instansiyasiga ish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish majburiyati yuklanmoqda. Shu bilan birga, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan apellyatsiya shikoyatini



Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

berish muddati 20 kundan 10 kunga qisqartirilmoqda.

Bundan tashqari, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga ishlarini ko'rishning o'ta markazlashtirilishiga barham berish, fuqarolarning o'lis hududlardan sudga kelib saron bo'lishining oldini olish maqsadida viloyat sudlari va ularga tenglashtirilgan sudlarda ishlar apellyatsiya yoki kassatsiya va taftish tartibida ko'rilishini, ishlar taftish tartibida Oliy sudning Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'atida va alohida hollarda Oliy sud Rayosatida ko'rilishini hamda yuqori instansiya sudlari tomonidan ishlarini yangidan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborish tartibi bekor qilinishini, shuningdek, yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ishlarini ma'muriy sudlar tomonidan ko'rishda prokuror ishtirok etishi shartligini

nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Ta'kidlanganidek, mazkur qonunlarning qabul qilinishi natijasida sudlarda ishlarining sifati va o'z vaqtida ko'rilishi, sud qarorlarini qayta ko'rishda viloyat sudlari hamda ularga tenglashtirilgan sudlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, eng muhimi, fuqarolarning sud orqali huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatlari kengayib borishiga erishiladi.

Qonunlar senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shuning bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatning qirq oltinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot xizmati.

## KUN TARTIBIDA – DOLZARB HUJJATLAR MUHOKAMASI

*Kecha o'z ishini boshlagan Oliy Majlis Senati qirq oltinchi yalpi majlisining birinchi kunida qator masalalar, jumladan, dolzarb qonunlar ko'rib chiqildi. Ulardan ayrimlarining mazmun-mohiyati, bugungi kundagi ahamiyati xususida senatorlar shunday fikr bildirdi.*

### Munosabat

#### Yo'l harakati ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qiliniadi

**Qutbiddin BURHONOV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi:**

— Sir emas, keyingi yatlarda yo'l harakati xavfsizligi bilan bog'liq holat yaxshilanish o'rni to'g'risida muhokama bo'lmog'ida. Ya'ni yo'l transporti hodisalar ko'payib, halok bo'layotganlar soni ortib borayotganligi, albatta, tashvishlidir. Bu holat yaqinda o'tkazilgan selektor yig'ilishida davlatimiz rahbari tomonidan tanqid qilindi.

Xo'sh, vaziyatni o'nglash uchun qanday choralar ko'rilmoqda?

Avvalo, sohani qonunchilik asoslarini takomillashtirishga alohida urg'u berilayotganligini aytib o'tish zarur.

Yalpi majlisda senatorlar tomonidan ma'qullangan "Yo'l harakati to'g'risida"gi qonun ham shu maqsadga yo'naltirilgan bilan ahamiyatidir.

Qonun bilan yo' egasi huquq va majburiyatlarini, transport vositalari egalarning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga doir majburiyatlarini va mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan haydovchilarning huquqlari alohida moddalar bilan belgilab qo'yilmoqda.

Yana bir muhim yangilik, yo' uchashtalarini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash yoki ta'mirlash bo'yicha ishlar bajarilayotganda yo'ning mazkur uchashtalaridagi qatnov qismining ko'pi bilan 50 foizi o'tish uchun cheklanishi yoki yopilishi mumkinligi, agar qatnov qismining 50 foizdan ko'prog'ini yopish zarur bo'lgan taqdirida mazkur yo' uchashtalarini aylanib o'tish ta'minlanishi kerakligi ko'zda tutilayotganligidir.

Qolaversa, ko'p kvartirali uylarga tutash

hududlarining belgilangan chegaralarida to'xtab turish joyini qurish to'g'risidagi qarorlar hududni rejalashtirish bo'yicha tasdiqlangan hujjatlarga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinishi ma'ljallanayotir.

Shuningdek, qonunda yana qator yangiliklar borki, bularning barchasi, pirovardida yurtdoshlarimiz xavfsizligini ta'minlash, yo'l harakatini to'g'ri va tizimli yo'lga qo'yish, mutasaddi organlar o'rtasida samarali hamkorlikni joriy etish, yo'l harakati ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishda qo'l keladi, deb hisoblaymiz.

#### Kassatsiya tartibida ko'rish vakolati viloyat sudi va unga tenglashtirilgan sudlarga o'tkazilmoqda

**Shuhrat CHO'LLIYEV, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi o'rinbosari:**

— Keyingi yillarda yurtimizda adolat tarozini bo'lgan sudlarni isloh qilish va odil sudlovni amalda to'liq ta'minlash hamda fuqarolar konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish va jamiyatda adolati qaror topirish masalasiga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda.

Senatorlar tomonidan ma'qullangan sud qarorlarining qonuniyligi va asosliqligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual, Ma'muriy sud ishlarini yuritish va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi to'rtta qonun ham shu maqsadga xizmat qilishi e'tiborga molik.

Aytilish joizki, taqdim etilayotgan yangiliklarga ko'ra qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlari shikoyat (protest) asosida apellyatsiya tartibida, qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari, agar ular apellyatsiya tartibida ko'rilgan bo'lsa, kassatsiya

tartibida, apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilgan sud qarorlarini taftish tartibida ko'rish belgilanmoqda. Ayni chog'da qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini kassatsiya tartibida ko'rib chiqish vakolati viloyat sudi va unga tenglashtirilgan sudlar vakolatiga o'tkazilayotir.

Sud qarorlarini qayta ko'rish bosqichlariga taftish instansiyasi kiritilishi munosabati bilan Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual, Ma'muriy sud ishlarini yuritish va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarda taftish instansiyasida ish yuritish tartibi batafsil yoritilmoqda.

Xususan, Fuqarolik protsessual kodeksiga sud ishlarini ko'rishning o'ta markazlashtirilishiga barham berilishini, ishlarini viloyat sudlarida va ularga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya va taftish tartibida ko'rish bosqichlari joriy etilishini, ishlar Oliy suda taftish tartibida hamda Oliy sudning Rayosatida qayta ko'rilishini, yuqori turuvchi sudlar tomonidan quyi sudlarning bekor qilingan qarorlarini yangidan ko'rish uchun qaytadan shu sudlarga yuborish tartibi chiqarib tashlanishini, har bir sud instansiyasining zimmasiga ish bo'yicha yakuniy qaror chiqarish majburiyati yuklatilishini, sud qarorlarini qayta ko'rish bosqichlariga taftish instansiyasi joriy etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotganligini aytish zarur.

Bu yangilanishlar, pirovardida sudlarda ishlar sifati va o'z vaqtida ko'rilishini, sud qarorlarini qayta ko'rishda viloyat sudlari hamda ularga tenglashtirilgan sudlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishini, muhimi, sud orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

#### Probatsiya jarayonidagi munosabatlar tartibga solindi

**Tolibjon MADUMAROV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:**

— Hozirgi globallashtirish jarayonida jamiyat hayotiga kirib kelayotgan innovatsiya va yangi

sahalar sezilarli darajada oshgani barchaga ma'lum. Buni so'ngi yillarda yurtimizda ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartni inobatga olgan holda probatsiya xizmati faoliyati yo'lga qo'yilgani misolida ham ko'rish mumkin.

Probatsiya xizmati tomonidan huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga barham berish, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan choratadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda probatsiya bo'linmalarida nazorati ostidagi shaxslar tomonidan 1086 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 845 tani, 2023-yilning 9 oyida 353 tani tashkil qilgan. Bu, albatta, o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Aniq aytadigan bo'lsak, bugungi kunda sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish, ozodlikni cheklash, muayyan huquqdan mahrum qilish va majburiy jamoat ishlari jazolarini joriy etish, shartli hukm qilingan va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod bo'lgan shaxslarning xulq-atvoridan nazorat qilishni tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjat yo'q. Bunda sabab bo'lmog'ida.

Yalpi majlisda ko'rilgan "Probatsiya to'g'risida"gi qonun bu boradagi huquqiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida, hayotiy zarurat tufayli ishlab chiqildi.

Qonun bilan probatsiya jarayonidagi munosabatlar, jumladan, probatsiya tizimining asosiy tushunchalari, probatsiya nazoratidagi shaxslar huquqiy holati, ijtimoiy moslashtirish shakllari qo'llash tartibi, nazoratdagi shaxslarning xulq-atvorini baholash mezonlari, ularga nisbatan elektron kuzatuv vositasini qo'llash masalalari tartibga solinmoqda.

Probatsiyani amalga oshirish borasida Hukumat, mahalliy jiro etuvchi hokimiyat organlari hamda Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining vakollari aniq belgilab qo'yilayotir. Ularga ko'mak beruvchi tashkilotlar ro'yxati ham keltirilgan.

Shuningdek, qonunda yana qator yangiliklar mavjud. Ularning barchasi probatsiya tizimidagi huquqiy bo'shliq va ziddiyatlarini hal etish, milliy xususiyat va sharoit asosida xalqaro standart va ilg'or xorijiy tajribani implementatsiya qilish, probatsiya amaliyotida yuzaga kelayotgan masalalarga yechim topish imkonini beradi.

"Xalq so'zi".

## KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASINING MAZMUN-MOHIIYATI

### AHOLI BILAN MULOQOTLARDA KENG TUSHUNTIRILMOQDA

Muloqotdan so'ng bir qator idora va tashkilotlar mas'ullari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda Jizzax shahrida obodonlashtirish sohasida hamda joriy kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning Jizzax shahrida jiro etilishiga oid bir qator masalalar ham mufassal ko'rib chiqildi.

#### Uchrashuv ishtirokchilar faolligida o'tdi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Shuhrat Bafoyev hamda Sherzod Rahmonovning Shofirkon va G'ijduvon tumanlarida bo'lib o'tgan uchrashuvlari ham amaliy natijalarga moy bo'ldi.

Deputatlar ochiq muloqotlar chog'ida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, har bir sohada bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar haqida so'z yuritdilar.

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasining mazmun-mohiyati keng tushuntirildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi quyi palataning bir guruhi deputatlari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan.

— Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan Markaziy saylov komissiyasining hamda hududiy, okrug va uchastka saylov komissiyalarining vakolatlarini aniqlashtirishga, — deydi Qonunchilik palatasi deputati Sherzod Rahmonov.

— Shu bilan birga, tuman, shahar saylov komissiyasining vakolatlarini belgilovchi yangi normalar bilan to'ldirilyapti. Tadbirda Konstitutsiyaviy qonun loyihasi amaldagi qonunchilikni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 129-moddasiga muvofiqlashtirish maqsadida hamda Prezidentimizning shu yil 8-maydagi tegishli Farmonining 8-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan alohida qayd etildi.

Uchrashuvda ishtirokchilarni qiziqitirgan savollarga deputatlar tomonidan atroflicha javob berildi.

"Xalq so'zi".

## EL-YURT OSOYISHTALIGI YO'LIDA MEHNAT QILISH — OLIY MAQSADIMIZ

Bugungi davr, hayotning o'zi har kuni oldimizga ko'plab vazifalarni ko'ndalang qo'yimoqda.

Prezidentimiz shu yil 26-27-iyul kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazgan videoselektor yig'ilishida sharafli burchimizni bajarishga yanada mas'uliyatli bo'lishga undadi. Jamiyatimizda ijtimoiy-yana muhit barqarorligini ta'minlashda zimmasidagi javobgarlik tuyg'usini teran anglab yetishimiz kerakligini ta'kidladi. Ayni kunlarda faoliyatimizni zamonaviy mezonlar asosida tashkil etishda bu kabi ezgu tashabbuslar muhim omil bo'lmog'ida.

Kasb bayramimiz munosabati bilan kamtarona faoliyatim yuksak e'tirof etilib, Prezidentimizning "Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlari mukofotlash to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra "Jasorat" medali bilan taqdirlandim.

Bu menga cheksiz iftixor baxsh etdi. Bundan buyon ushbu ishonchga loyiq bo'lish uchun xalqimizning osuda hayotini ta'minlash yo'lida o'z burchimni sidqidildan bajaraman.

Ulug'bek ASQAROV, Farg'ona viloyati IIB patrol-post xizmati otryadi saford xodimi.

### Parlamentdagi muxbirimiz xabar qiladi

# JARIMA MAYDONCHALARI TALABGA JAVOB BERADIMI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda har gal dolzarb masalalar ko'tariladi. Bu galgi yig'ilish ham barchaga, ayniqsa, yo'l harakati ishtirokchilarini uchun muhim ahamiyatga ega — jarima maydonchalari faoliyatini kompleks tarzda qayta tashkil etish borasida amalga oshirilgan ishlar tahliliga bag'ishlandi.

Yig'ilishda deputatlarimiz saylovchilarning uchrashuvlarida, quyi palataga kelib tushgan murojaatlarda qonun hujjatlarini buzilgan uchun ushlangan transport vositalarini to'xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlash faoliyati, ya'ni jarima maydonchalari bilan bog'liq jiddiy muammolar mavjudligi kuzatilganligi qayd etildi.

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Kozimjon Tojiyev yuqoridagi masalalardan kelib chiqib, qo'mita a'zolari tomonidan sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi Andijon, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida misolida joyiga chiqqan holda o'rganilgani bo'yicha ma'lumot berdi.

Ta'kidlab o'tilganidek, mazkur jarayonda aksariyat ushlangan transport vositalarini jarima maydonchalarida saqlaganlik uchun plastik kartochkalardan to'lovlarini qabul qiladigan hisob-kitob terminali hamda fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinasi yo'qligi, mavjud bo'lganlarida ham ulardan deyarli foydalanilmisligi aniqlangan.

Shu bilan birga, ushlangan transport vositalarini jarima maydonchalarida saqlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun turli miqdordagi to'lovlar undirilgan. Ushbu to'lovlarning aniq miqdorlari esa belgilanmagan.

Yana bir holat: ushlangan transport

vositalarini to'xtash joylaridan olib chiqishga ruxsatnomani olishda ham ayrim chalkashliklar mavjud.

Bu kabi qayd etilgan muammolarning mavjudligi esa transport egalarning haqli e'tirozlariga, shu bilan birga, qator ovoragarchilik va noqulayliklarga sabab bo'layotganiga alohida e'tibor qaratildi.

Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi nazorat-tahlil tadbirida aniqlangan kamchiliklar, sohaga oid qonunchilik hujjatlarini o'rganish, statistik ma'lumotlarni, shuningdek, saylovchilar bilan tashkil etilgan uchrashuvlarda ko'tarilgan masalalarni tahlil qilish asosida jarima maydonchalari faoliyatini tubdan o'zgartirish zarurati mavjud, degan xulosaga kelingan.

Shundan kelib chiqib, qo'mita taklifi bilan "Qonun hujjatlarini buzilganlik uchun ushlangan transport vositalarini to'xtash joylariga olib kelish, joylashtirish va saqlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar

to'g'risida"gi masala yuzasidan Bosh vazir o'rinbosari A. Ramatovga Qonunchilik palatasining parlament so'rovi yuborilgan va unga javob olingan.

Parlament so'roviga kelgan javobda qayd etilishicha, haqiqatan ham, jarima maydonchalarining faoliyatiga doir tizimli muammolar borligi, ularni o'rganish yuzasidan vazirlik va idoralarni mas'ullardan iborat ischi guruh tuzilgani holda respublikada mavjud jami 295 ta jarima maydonchasi holati o'rganilgani hamda ular Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan belgilangan talablarga javob bermasligi aniqlangan.

Mazkur masala Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining doimiy nazoratida bo'lganligi bois yig'ilishda bu bo'yicha mas'ullarning axboroti atroflicha muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, parlament so'roviga ko'tarilgan masalalarning huquqiy jihatdan yechimini ta'minlash maqsadida Vazirlar

Mahkamasining tegishli qarori qabul qilingan.

Mazkur hujjatga muvofiq, 2024-yil 1-yanvardan boshlab, ushlangan transport vositalarini saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali ochiq tanlov asosida saralab olinadi.

Shuningdek, ushlangan transport vositalarini to'xtash joylariga olib kelish, joylashtirish, saqlash, hisobini yuritish va olib chiqib ketishga ruxsat berish tegishli vazirlik va idoralarga integratsiyalashgan "Jarima maydonchasi" axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

Ushbu axborot xizmatining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

Qayd etilishicha, uning asosiy vazifalari — transport vositasini jarima maydonchasiga joylashtirish to'g'risidagi qaror ushbu axborot tizimi orqali elektron shaklda chiqarilishini yo'lga qo'yish,

ushlangan, to'xtash joylariga joylashtirilgan va olib chiqishga ruxsat berilgan transport vositalarining ro'yxatini yuritish, barcha to'lovlarini elektron shaklda amalga oshirish, ushlangan transport vositalarini to'xtash joylaridan olib chiqishga ruxsatnomani saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga elektron shaklda taqdim etish belgilangan.

Yig'ilishda deputatlar jarima maydonchalari tashkil etish belgilangan talablarga javob beradigan darajada bo'lishini ta'minlash ustidan nazoratni kuchaytirish lozimligiga e'tibor qaratdi. Vazirlik va idoralar vakillariga bir qator taklif va tavsiyalar bildirildi.

Yakunda Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zolari tomonidan mazkur soha parlamentning doimiy nazoratida bo'lishi alohida ta'kidlandi hamda qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Ziyoda ASHUROVA ("Xalq so'zi").

# YOSHLAR — JAMIYAT TARAQQIYOTINING HAL QILUVCHI KUCHI

**1** Xalqaro forumning asosiy milliy tashkilotchisi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bo'lib, u bir qator vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda o'tkazildi. Anjumanni tashkil etishda BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, Oliy komissar boshqarmasining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy bo'limi, BMTning O'zbekistondagi doimiy muvofiqdastiruvchisi ofisi, BMTning mamlakatimizdagi vakolatxonasi, YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, YXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqdastiruvchisi, Fridrix Ebert nomidagi jamg'arma kabi xalqaro sheriklar bilan yaqin hamkorlikda ish olib borildi.

Gibrid shaklida o'tkazilgan xalqaro forumda Markaziy Osiyo mamlakatlardagi yoshlar tashkilotlari, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, yoshlar, shuningdek, O'zbekistonda akkreditatsiya qilingan o'nlab diplomatik vakolatxonalar namoyandalari qatnashdi.

Xalqaro forumda zamonaviy jamiyat hayotining muhim jabhalarida yoshlarning o'rni va ta'siriga, yoshlar huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish bo'yicha amaldagi xalqaro hamda mintaqaviy hujjatlar va mexanizmlarga oid keng ko'lami masalalar chuqur hamda sinchiklab muhokama qilindi.

Fikrimizcha, yoshlar forumi quyidagi asoslarga ko'ra dolzarb va muhim voqea hisoblanadi:

— Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligi hamda Vena deklaratsiyasi va Harakatlar dasturining 30 yilligini nishonlash doirasida bo'lib o'tadi;

— aholisining qariyb yarmini yoshlar tashkil etuvchi Markaziy Osiyo mintaqasida navqiron avlod huquqlarini ta'minlash bo'yicha birlashish va hamkorlik qilishning ramziy ifodasi bo'ldi;

— O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida BMT huzurida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruhni tashkil etish to'g'risidagi tashabbusini amalga oshirish doirasida o'tkazildi;

— shakli hamda mazmuni jihatdan o'ziga xosligi bilan ajralib turdi. Mazkur jahon anjumani Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistondan ko'plab yoshlarni, shuningdek, mamlakatimizning 14 ta hududidan o'ndan ortiq oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'z takliflarini bildirishga undash maqsadida yagona muloqot maydonida birlashtirdi;

— forum maydonida yoshlar bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar natijalari 2023-yil dekabr oyida Jenevada o'tadigan yuqori darajadagi tadbirda taqdim etilishi rejalashtirilayotgan "Inson huquqlari — 75" yoshlar deklaratsiyasi loyihasini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Toshkent xalqaro forumining

o'ziga xosligi ushbu xalqaro-huquqiy anjuman doirasida tashkil etilgan rang-barang ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar misolida ham yorqin namoyon bo'ldi. Xususan, uning ochilishi noan'anaviy tarzda boshlandi. Muhtasham majlislar zali uzra O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidovning "Inson qasidasi" iqtidorli yoshlar ijrosida o'zbek, ingliz va rus tillarida yangradi.

Shuningdek, inson huquqlari bo'yicha adabiyotlar, o'zbek shoir va yozuvchilarining sara asarlari ko'rgazmasi tashkil etildi. Ko'rgazmadan 100 ta nomdagi 200 dan ortiq kitob va ilmiy jumallar joy oldi. Ilmiy-texnik kashfiyotlar va yosh ixtirochilarning "startap" loyihalari namoyishi ham ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Xalqaro forum doirasida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalari uchun mahorat darsi tashkil qilindi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Davlat va huquq institutida mamlakatimizning o'rta mintaqasida joylashgan Namangan, Nukus, Samarqand hamda Termez davlat universitetlari yuridik fakultetlari talabalari ishtirokida davra suhbatlari o'z o'rnini egalladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Markaziy Osiyo yoshlar forumining ochilish qismida ishtirokchilarni BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari **Folker Tyurk** va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi direktori **Matteo Mekachchi** videomurojaat orqali taklif etildi.

Shuningdek, BMTning O'zbekistondagi doimiy muvofiqdastiruvchisi nomidan — UNICEFning O'zbekistondagi vakili v.b. **Jofri Ijumba**, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti amaldagi raisining yoshlar masalalari bo'yicha maxsus vakili **Memet Jaku** hamda Islom hamkorlik tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasi vakili **Muhammad Laval Sulaymonning** qutlov so'zlarini tinglandi.

Xalqaro forum ishtirokchilari bir qator juda muhim xulosalarni bayon etdilar. Eng asosiysi, **jahon hamjamiyati O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarning qadr-qimmatini, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash sohasida olib borayotgan siyosatni hamda bu borada ilgari surayotgan tashabbuslarini yuksak baholashi alohida ta'kidlandi.**

Xususan, BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari **Folker Tyurk** yoshlar anjumanini tashkil qilgani uchun mamlakatimiz Hukumatiga minnatdorlik bildirib, mazkur forum O'zbekistonning bu borada qo'ngan ko'plab muhim qadamlaridan biri ekanini e'tirof etdi.

F. Tyurkning ta'kidlashicha, **"Toshkent xalqaro forumi Markaziy Osiyo yoshlari o'z huquqlarini himoya qilishni o'rganishlari, eng muhimi, qaror qabul qiluvchilarga o'z**

**muammolari va tashvishlarini bildirishlari uchun erkin muloqot maydonidir. Bu yerda yoshlar inson huquqlari ular uchun nimani anglatishini va inson huquqlari uchun qanday kelajakni xohlashlarini baralla bildirish imkoniga ega bo'ladi.** Bu xalqaro anjuman inklyuziv va tinch jamiyatlarni barpo etishda yoshlarning ulkan rolini ta'kidlash uchun qulay imkoniyat hisoblanadi".

O'z navbatida, UNICEFning O'zbekistondagi vakili v.b. **Jofri Ijumba** qayd etganidek, yoshlarning o'z salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishlari uchun imkoniyatlarini kengaytirish BMTning Toshkentdagi jamoasi uchun asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Ushbu strategik maqsad BMTning 2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish bo'yicha hamkorlik dasturida o'z ifodasini topgan. O'zbekiston BMTning "Yoshlar — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha sinov loyihasiga jalb etilgan dastlabki hamkor davlatdir.

J. Ijumbaning so'zlariga ko'ra, **"O'zbekistonning bo'lajak yetakchilari — mohir diplomatlar, siyosatchilar, parlament a'zolari, davlat xizmatchilari, huquqshunoslar bo'lib yetishadigan bugungi yoshlar dolzarb global muammolarni milliy muammol bilan uyg'unlikda tahlil qilish borasida tegishli ko'nikma va bilimga ega bo'lishlari zarur. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda, ayni jarayonda hech kim ortda qolmasligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O'zbekistonda inson salohiyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berilmoladi. O'zbekiston bugun o'zining yosh kadrlari bilan har qachongidan ham kuchli ekaniga shubha yo'q"**.

Islom hamkorlik tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasi vakili **Muhammad Laval Sulaymon** forum tashkilotchilariga yoshlar huquqlarini ta'minlash borasidagi g'amxo'rliklari, shu jumladan, 2019-yili Toshkentda IHTning yoshlar huquqlari bo'yicha oltinchi yillik seminarini muvaffaqiyatli o'tkazilgani uchun minnatdorlik izhor qildi. U 2025-yilda dunyo aholisining salkam uchdan bir qismi yoshlardan iborat bo'lishiga e'tibor qaratib, navqiron insonlar jamiyatini harakatga keltiruvchi tayanch kuchlarga aylanishlari uchun yetarli shijoat, salohiyat va tashabbuskorlik layoqatiga egaligini ta'kidladi. Shu ma'noda, IHT vakili yoshlarning huquqlari ta'minlanishi va ularning rahbarlik bildirib, mazkur forum O'zbekistonning bu borada qo'ngan xalqaro forumi natijalari o'ziga xos o'rini tutishiga ishonch bildirdi.

Yaqinda Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoshlar sohasida yana bir muhim tashabbusni — BMT huzurida

Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etishni taklif qildi. Ushbu tashabbus Markaziy Osiyo mintaqasida yoshlar huquqlarini ta'minlash va amalga oshirishdan eng yuqori darajada manfaatdorlikning o'ziga xos namunasidir. Chunki Markaziy Osiyoda aholining qariyb yarmini yoshlar tashkil etishi nazarda tutilsa, yosh avlod, uning salohiyatini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq masalalar alohida ahamiyat kasb etishi yanada yaqqol ayon bo'ladi.

BMT Dning zo'ravon ekstremizmning oldini olish masalalari bo'yicha xalqaro eksperti **Jozef Gayt** yoshlarni ekstremistik oqimlarga jalb etishga qaratilgan saytlar mavjudligi sababli jiddiy xavf borligi va bu borada yoshlarga tanqidiy fikrlash, bunday mazmunni anglash va ushbu ma'lumotlarga qarshi kurashish ko'nikmalarini o'rgatish zarurligi haqida gapirdi. Uning fikricha, so'z erkinligi huquqini buzmaganda, bunday saytlar faoliyatini cheklash masalasiga oydinlik kiritish zarur. Shuningdek, professor-o'qituvchilar tarkibini yoshlar bilan ishonchli muhitda muloqot qilishga o'rgatish, bunda o'z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarning fikrlarini baholash va humat qilish masalalarida ko'maklashish tavsiya etildi.

Gallaudet universiteti bitiruvchisi **Damir Tuzmuhamedov** o'z nutqida AQSHning inklyuziv ta'lim sohasidagi tajribasi bilan o'rtoqlashdi. Ma'ruzachi Gallaudet universiteti misolida imkoniyatni cheklagan yoshlarning ta'lim olish huquqlari qanday amalga oshirilayotgani haqida gapirdi. Bu darslar amerikaacha imo-ishora tilida o'tiladigan dunyodagi yagona universitet bo'lib, unda aksariyati kar va ehsitish qobiliyati past professor-o'qituvchilar dars o'tadi.

Ma'ruzachi nogironligi bo'lgan va ehsitish qobiliyatini yo'qotgan insonlarga ham keng qamrovi ta'lim olish huquqini kafolatlaydigan AQSH qonunlariga ishtirokchilar e'tiborini qaratdi. Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatli dastur va amaliyotlar barcha talabalar uchun ularning jismoniy yoki psixologik xususiyatlaridan qat'i nazar, foydalanish imkoniyati va teng imkoniyatlarini ta'minlashga qarantilinganligi bilan ahamiyatlidir. Ishirokchilar tomonidan xalqaro forumning yakuniy hujjati — Yoshlar huquqlari bo'yicha Markaziy Osiyo deklaratsiyasi loyihasi ishlab chiqildi. Forumning asosiy natijalari va amaliy tavsiyalari o'z mujassamini topgan

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Prezidenti har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishida yoshlarning muhim o'rin tutishini anglagan holda xalqaro maydonda mutazam ravishda muhim tashabbuslar bilan chiqayotgani bejiz emas. Chunki davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, **"Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir"**.

ushbu muhim hujjat istiqbolda yoshlar huquqlari sohasidagi yangi sa'y-harakatlar va ilg'or tashabbuslar uchun mustahkam zamin vazifasini o'tashiga ishonch bildirildi.

Yoshlar huquqlari bo'yicha Markaziy Osiyo deklaratsiyasi loyihasini muhokama qilish asosida bir qator asosiy tavsiyalar ilgari surildi.

**Birinchidan**, 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida inson huquqlari sohasidagi ta'limni va yoshlarning ijodiy salohiyatini rag'batlantirib borish lozim. Bunda mutazam ravishda ta'lim kompaniyalari va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turli ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish orqali yoshlarning huquq va majburiyatlarini, shuningdek, tinchlik va bag'rikenglik madaniyati haqida xabardorlikni oshirishga urg'u beriladi.

**Ikkinchidan**, yoshlar huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro hujjatlar va BMT qarorlaridan rahbariy qo'llanma sifatida foydalangan holda, yoshlar siyosat sohasida kompleks va maqsadli milliy dastur va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishni amalioyotgan yanada keng tatbiq etish kerak.

**Uchinchidan**, inklyuziv ta'limni ta'lim tizimining barcha bosqichida joriy etish zarur. Bu, o'z navbatida, nogironligi bo'lgan yoshlarning jamiyatga to'liq integratsiyalashuvi uchun ularga sifati ta'lim berishga xizmat qiladi.

**To'rtinchidan**, yoshlarning OIV/OITS kasalligi va reproduktiv salomatlik haqida xabardorligini oshirish uchun sog'lom hayotga oid ta'lim ko'laminii kengaytirish zarur.

**Beshinchidan**, barqaror rivojlanish sohasidagi dolzarb masalalarni hal etishda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yoshlar delegatsiyalari almashinuvini qo'llab-quvvatlash maqsadiga muvofiqdir.

Hech shubhasiz, poytaxtimizda konstruktiv, ijodiy va ishchi muhitda bo'lib o'tgan "Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari" mavzuidagi xalqaro forum yakunlari barchamizga yangi sa'y-harakatlar uchun beqiyos rag'bat bag'ishladi. Shu munosabat bilan milliy va xalqaro hamkorlarimizga forumni o'tkazishda har tomonlama qo'llab-quvvatlaganligi uchun, o'fflayn va onlayn qatnashgan jami ishtirokchilarga esa g'oyat faolliklari uchun yana bir bor minnatdorlik bildiramiz.

**Akmal SAIDOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori.**



## OLY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASIDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi tomonidan "Qonun ijodkorligida yoshlarning o'rni" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi.

Unda komissiya faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri — qonun loyihalari yuzasidan takliflar ishlab chiqish ekanligi ta'kidlandi. O'tgan davrda komissiya 30 dan ortiq qonun loyihalari bo'yicha 60 dan ziyod asoslantirilgan takliflar tayyorlagan va ularning aksariyati qonun loyihalari kottomiligiga yetkazilishda e'tiborga olingan.

Shuningdek, Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tomonidan "Insonga e'tibor va sifati ta'lim yili" davlat dasturi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni hayotga izchil tatbiq etish bo'yicha ham keng ko'lami ishlar olib borilayotgani ta'kidlandi.

Tadbirga yoshlarga "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar, uning doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, shuningdek Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari haqida ham atroflicha ma'lumot berildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan Kambag'likni qisqartirish va bandlik vazirligining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifati ta'lim yili" davlat dasturida belgilangan vazifalarning shu yil to'qqiz oyida bajarilishi yuzasidan axboroti eshitildi.

Qizg'in muhokama ruhida o'tgan yig'ilishda deputatlar vazirlik tomonidan davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlarni e'tirof qilgan holda, sohada kuzatilayotgan ayrim kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar berdi.

Yig'ilish so'ngida kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi tomonidan "Ichimliq suvi ta'mini va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risidagi Qonunning ijro etilishi holatini nazorat-tahlil tartibida Surxonodaryo viloyati misolida o'rganish yakunlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Unda deputatlar nazorat-tahlil tadbirida aniqlangan, hal etilishi lozim bo'lgan bir qator masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Qizg'in bahs-munozara va muhokama chog'ida deputatlar ichimlik suvi ta'mini va oqova suvlarni chiqarib yuborish borasidagi dasturlarning o'z muddatida bajarilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, sohada xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, obyektlardan ichimliq suvi ta'mini ehtiyojlari uchun foydalanishda sanitariya qoidalarga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi tomonidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon viloyati hamda Toshkent shahri hududiy boshqarmalarining "Davlat ishtirokidagi korxonalarida moliyaviy natijadorlikka erishish va davlat mulkidan samarali foydalanish holati to'g'risida"gi axborotlari eshitildi.

Yig'ilishda deputatlar amalga oshirilgan ishlarni e'tirof qilish bilan birga, agentlikka xususiy lashtirish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida hududlardagi bo'sh turgan va samarasiz foydalanilayotgan davlat ishtirokidagi korxonalar obyektlarining yalpi xatlov ishlarini davom ettirish, xatlov natijasida aniqlangan obyektlardan samarali foydalanishning ilmiy choralarini ko'rib borish bo'yicha tegishli tavsiyalar berdi.

Yakunda kun tartibidagi masalalar yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.

# SPORTCHILARIMIZNING NAVBATDAGI MUVAFFAQIYATLARI

Xitoyning Xanchjou shahrida davom etayotgan IV Paraosiy o'yinlari dasturidan o'rin olgan bir qator sport turlari bo'yicha kecha navbatdagi bellashuvlar bo'lib o'tdi. Ularida yurtimiz sharafigini himoya qilayotgan atletlarimiz munosib qatnashib, nafaqat g'olib va sovrindorlar safidan joy oldi, balki musobaqa rekordlarini ham yangilashdi.

## Paraosiy o'yinlari

Jumladan, xotin-qizlar o'rtasida parayengil atletikaning F41 yo'nalishida yadro uloqtirish bo'yicha o'z imkoniyatini sinab ko'rgan Kubaro Hakimova Osiyo rekordini o'rnatgan holda oltin medalni qo'lga kiritdi. Erkaklar o'rtasida T47 yo'nalishida uzunlikka sakrash bahsida Omadbek Hasanov ham barcha raqiblarini ortda qoldirib, musobaqa g'olibiga aylandi.

F37 yo'nalishida yadro uloqtirish musobaqasida Qudratullaxon Ma'rufxo'jayev oltin, Tolibjon Yo'ldoshev kumush medalga sazovor bo'ldi. Yana bir sportchimiz Elbek Sultonov esa F12 yo'nalishida yadro uloqtirish dasturida kumush medalni qo'lga kiritdi.

Pauerlifting bo'yicha Farhod Umrzovov (-97 kg.) 228 kg. og'irlikni

bo'ysundirib kumush medal sohibiga aylandi.

Shuningdek, F11 yo'nalishida disk uloqtirish bahsida Shahnozaxon Adhamova kuchli uchlikdan joy oldi.

Avvalgi kunlardagi bahslarda parasuzishning S13 yo'nalishida 400 metrga erkin usulda suzish musobaqasida bronza, 100 metrga brass usulida suzish bellashuvida kumush medalni qo'lga kiritgan Firdavs Musabekov kecha mazkur yo'nalishning 200 metrga individual kompleks usulda suzish bo'yicha bronza medalni qo'lga kiritdi.

Parasuzish bo'yicha S13 yo'nalishida 50 metrga erkin usulda suzish bahsida ishtirok etgan uch nafar vakillimizning barchasi sovrinli o'rinnlarni egalladi. Jumladan, Islom



Aslanov oltin, Muzaffar Tursunxo'jayev kumush va Kirill Pankov bronza medaliga sazovor bo'ldi. Eslatib o'tamiz, bu sportchilarimiz avvalgi kungi bellashuvlarda ham g'olib va sovrindorlar safidan joy olishgan. Xususan, mazkur yo'nalishning 100 metr masofaga batterflyay usulda suzish bahsida Muzaffar Tursunxo'jayev oltin, Islom Aslanov kumush, Kirill Pankov esa bronza medalini qo'lga kiritgandi. 100 metrga

chalqancha usulda suzish bahsida esa Kirill Pankov oltin, Muzaffar Tursunxo'jayev kumush medal sohibi bo'lgan edi.

Musobaqaning navbatdagi kunidan so'ng O'zbekiston delegatsiyasi 24 oltin, 23 kumush, 25 bronza, jami 72 medal jamg'argan holda umumjamoahisobida 8-pog'onani band etib turibdi.

**Fazliddin ABILOV ("Xalq so'zi").**

# IBN SINO NOMI BILAN ATALUVCHI DARAXT BORLIGINI BILASIZMI?

Dunyodagi ko'plab ko'cha-yu xiyobonlar, o'quv muassasalari, kutubxonalariga jahonda Avitsenna nomi bilan tanilgan buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino nomi berilgan. Qator shaharlarda uning haykalini uchratish mumkin. Yanada e'tiborsiz, doimo yam-yashil bo'lib turuvchi bir daraxt turi ham Avitsenniya deb atalgan.

## Anjuman

Bu nomni unga 1707 — 1778-yillarda yashab o'tgan taniq shved olimi Karl Linney bergan. Tropik mamlakatlarda o'sadigan bu daraxt o'ziga xos yaproqlari va pushti gullari bilan ajralib turadi. Manbalarda aytilishicha, uning 8 turi bor. Ayrim turlarini xona sharoitida ham o'stirish mumkin.

Karl Linneyga kelsak, u Shvetsiyaning ovloq bir go'shasida tug'ilgan. Zamonaviy biologiyaning asoschilaridan biriga aylangan bu inson o'simliklar va hayvonlarning birinchi tasnifini yaratgan. Shvetsiya va Norvegiyaning shimoliy qismi Laplandiyaga yolg'iz o'zi ekspeditsiya uyushtirib, o'simlik va hayvonot dunyosining ko'plab turlarini tadqiq qilgan.

Qarangki, olim ma'lum bir ma'noda orzular og'ushida ham yashagan. Deylik, u Boltiqbo'yida, sovuq o'ikalarda tropik o'simliklarni o'stirish, paxta yetishtirish, ipakchilikni yo'lga qo'yish niyatida bo'lgan. Butun boshli gerbariyalar to'plami, ilmiy asarlari, 2,5 mingta nodir kitobdan iborat kutubxonasi undan qolgan bebaho meros sanaladi.

Olim hayotligidayoq dunyo tan olgan darajaga yetganiga qaramay, o'rtao'miyat turmush kechirgan. Shifokorlik ortidan ro'zg'or tebratgan. Doktor sifatidagi shon-shuhratga esa "dastorbosh" yoki "bo'yimodaron" deb ataladigan o'simlik barglari qaynatmasi vositasida bir necha bemorni tuzatgani evaziga erishgan. Shundan so'ng u shved qirolik saroyiga tabib vazifasiga ishga olingan. Nazarimizda,

aynan shu dalil Karl Linneyning qomusiy olim Abu Ali ibn Sino ta'limotidan yaxshi xabardorligini ko'rsatadi. Zotan, Ibn Sino asarlarining ko'plab qo'lyozma nusxalari dunyoning nufuzli kutubxonalarida saqlanadi. Shubhasiz, o'simliklarni tadqiq qilish, ulardan foydalanib bemorlarni davolashda unga Sharq tamaddunining porloq yulduzlaridan biri qoldirgan boy meros qo'l kelgan.

Qishin-yozin yam-yashil turadigan Avitsenniya daraxtiga keladigan bo'lsak, bu nom zamirida majoziy ma'no borligi kunday ravshan, albatta. Buyuk ajdodimizning boy ilmiy-ma'naviy merosi asrlar osha yam-yashil daraxtda yashnab, soyasidan dunyoni bahramand etib turibdi.

Kecha Buxoroda boshlangan an'anaviy anjuman — XII xalqaro Ibn Sino o'qishlari ilmiy-amaliy konferensiyasida ana shu merosni yanada chuqur o'rganish masalalari ko'rib chiqilmoqda.

**Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").**

**Nazm gulshani**

**ANVOYI  
IJOD CHAMANI**



Adabiyot atalmish ko'rkam bo'ston asrlar osha to'lishib, yanada chiroy ochib, yangidan yangi nomlar bilan boyib borayotgani xalqimizning benuhoy katta xazinasi. Bu boqqa o'z ulushini qo'shgan borki, diliga, tiliga yuksak insoniy tuyg'ular, Vatan, erk, muhabbat, ezgulik, baxtu saodat kabi tushunchalar jo bo'ladi.

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid o'zining ana shunday otashin she'riyati, sermahsul ijodi bilan xalqimizning ko'nglidan joy olgan ijodkoridir. Shoirning bitiklarida ozod yurt manzumi, oshiq ko'ngil baxtu iztiroblari, ezgulikka esh hayotiy timsollar o'ziga xos ifoda, ko'rku tarovatda namoyon bo'ladi. Sof tuyg'ular, cho'ng samimiyat, teran fikrlar, mukammal badiiyat she'riyat ixlosmandini maftun etadi.

Quyida shoirning ijodidan sara namunalarini o'quvchilarga tuhfa qilamiz.

**Inson qadri**

Tiriklikning iforiday gullar atr,  
Bulbul uchun muqaddasdir bo'ston qadri.  
Bulbul aslo yasholmas o'z chamanisiz,  
Inson yasholmagay hargiz Vatansiz.  
Yashnar ekan toki davru zamon qasri —  
Bu Vatanda muqaddasdir inson qadri.

Sen egilib chigit ekding, paxta terding,  
Shuncha molu dunyoyingni kimga berding?  
Yuz yil mehnat qilding, kosang oqarmadi,  
Xalqim, tole senga ham bir boqarmidi?  
Keldi endi chin dehqon bog'bon qadri,  
Bu Vatanda muqaddasdir inson qadri.

Millatlarni birlashtirgan tashkilotda  
Sen o'zbekcha so'ylar eding, O'zbek ota.  
Sen o'zbekcha so'ylarding — men yig'lar edim  
Uch yuz yetmish tomirim-la tinglar edim.  
Baland bo'ldi elda ilmu irfan qadri,  
Bu Vatanda muqaddasdir inson qadri.

Kelajakning ko'rkam qasru uylarida,  
To'ylarida, mahalla ham ko'ylarida —  
Ellar, xalqlar birlashib bayram bo'ladi,  
Bu davronlar hali duv-duv gap bo'ladi.  
O'zbek uchun muqaddasdir mehmon qadri —  
Bu Vatanda muqaddasdir inson qadri.

O'zing qurding uch ming yillik davlatingni,  
Qadriga yet oring, sha'ni shavkatingni.  
Bugun imon keltirdi-ku ro'yi jahon,  
O'zbekiston, ota makon, ona makon.  
Chin sarbonga qutlug' bo'lsin karvon qadri,  
Bu Vatanda muqaddasdir inson qadri,  
Inson qadri muqaddasdir, inson qadri.

Dilni o'zga yurtga moyil ko'rmadim,  
Yurtsiz bir mironni hosil ko'rmadim.  
Qanchalar ummonu daryolar kechdim,  
Anhor sohiliday sohil ko'rmadim.

Ko'ringan tog'larning qoyalardir,  
Ul ota-bobomning soyalaridir.  
Osmonga yuksalgan baland cho'qqilar  
Erk deya yuksalgan g'oyalardir.

**Rauf Parfi tavalludining  
80 yilligi**

**“OLOVLAR, CHAMANLAR  
ICHRA O'ZIM BOR”**

Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi Xalqobod madaniyat markazida o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor, O'zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan “Olovlar, chamanlar ichra o'zim bor” nomli adabiyat-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Unda shoir va yozuvchilar, shoirning oila a'zolari, talaba-yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Badiiy kechada so'zga chiqqanlar Rauf Parfi ijodi, jasoratli she'riyati, shoir she'rilaridagi o'tli ruh — erk, Vatan, muhabbat tuyg'ulari ta'sirchan tarzda ifodalangan, ijodkor tarjimon sifatida ham o'ziga xos maktab yaratgani, bu adabiyot bugun ham muxlislar qalbida yashayotgani haqida gapirishdi.

— Ustoz Rauf Parfi butun umri mobaynida turkiy birlashgan xalqlar haqida orzu qildi, o'yladi, yozdi, — deydi shoir va tarjimon Vafo Fayzullo. — Bugun o'sha ulug' maqsad amalga oshmoqda, qardosh davlatlar itimoiy-

siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy hamkorliklar asosida birlashmoqda. Agar Rauf Parfi bu kunlarning shohidi bo'lganida naqadar xursand bo'lardi. Bugun ustozning 80 yilligi ko'tarinki ruhda o'tdi. Muhtasham adabiyot bog'i so'lmas ekan, Rauf Parfi ham qalblarimizda barhayot yashayveradi.

Tadbirda shoir she'rlari o'qildi, san'atkorlar tomonidan Rauf Parfi ijod namunalarini asosida yaratilgan qo'shiqlar ijro etildi.

**Rahmatjon BOBOJONOV**  
 (“Xalq so'zi”).

**“O'ZMILLIYBANK” AJ:**

**IQTISODIY BARQARORLIK VA ISHONCHLI  
MOLIYAVIY HAMKORLIK SAMARALARI**



Bugun moliya bozorining talabi qat'iylashib bormoqda. Chunki raqobat kuchli. Raqobatda yuqorib qo'ymaslikning muhim sharti esa — moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, turizmni rivojlantirishning bosh bo'g'ini bo'lgan xizmatlar sohasini jadallashtirish, ishbilarni, eksportchi korxonalarini va xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirishga bel bog'lagan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, istiqbolli biznes loyihalarini tayyorlashga yordamlashish. Va ayni chog'da, tobora globallashtirib, xatar va tavakkalchilik ortib borayotgan moliya bozorida o'z o'rni va nufuziga ega bo'lish har bir bank muassasasining asosiy vazifasidir.

**Moliya muassasalarida**

“O'zmilliybank” AJ bozorining ana shunday qat'iy talablarini bajarishda va mamlakatdagi moliya muassasalarida o'z mavqegini mustahkamlash yo'lida sobitqadamlik bilan harakat qilmoqda. Binobarin, xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirishga davlatimiz rahbari tomonidan ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bank Prezidentimiz Farmon va qarorlari ijrosi doirasida hududlarda aholiga xizmat ko'rsatish darajasini ko'tarish yo'lida tadbirkorlarga ko'plab istiqbolli loyihalarini taklif etmoqda. Buning samarasi o'laroq, zamonaviy mehmonxonalar, davolash-profilaktika muassasalarini, sport va sog'lomlashtirish markazlari hamda dam olish maskanlari qad rostlamoqda. Yangi-yangi ish o'rnlari ochilayapti.

Bu jihatdan “O'zmilliybank” AJ har doim ishbilarni rivojlantirish istiqbolli hamkori bo'lib kelmoqda. Buni bank Matbuot xizmati tashabbusi bilan OAV xodimlari ishtirokida Buxoro viloyatida o'tkazilgan press-tur ham ifodalab turibdi.

quvvatlamog'da. Bunday imkoniyat bizni unumli ishlashga, biznesimizni yanada kengaytirishga undaydi.

Tadbirkor tomonidan “O'zmilliybank” AJning moliyaviy ko'magida tashkil etilgan restoran xizmati ana shu fikrning mantiqiy davomi deyish mumkin. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 5 mlrd. so'm bo'lib, shundan Buxoro viloyati Bosh boshqarmasi tomonidan ajratilgan kredit summasi 1,9 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bugungi kunda



mehmonxona majmuasi tashkil qilish loyihasi uchun “O'zmilliybank” AJ tomonidan 1 mlrd. so'm kredit mablag'i ajratildi. Mazkur mehmonxonada yashash xonalar soni 30 ta bo'lib, bir vaqtning o'zida 60 nafar mehmonga namunalari xizmat ko'rsatadi. Ayni chog'da 10 kishi ish bilan ta'minlangan. Kelajakda tadbirkor korxonada faoliyatini yanada kengaytirib, “Afsona Premium” restoran o'chirishni mo'ljallamoqda.

— Sababi, bugun zamonaviy va bormoqda. Buni zamonaviy tipdagi avtomatlashtirilgan issiqxonalar ko'payib borayotgani misolida ham ko'rish mumkin.

Jumladan, “VARNET” O'zbekiston — Turkiya xorijiy korxonada shaklidagi mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan barpo etilgan zamonaviy issiqxonada kompleks boshqalardan farqli ravishda sitrus mevalar yetishtiradi. Ayni chog'da tabiat qo'ynida umumiy

**Bozordagi raqobat va to'siqlarni yengib...**

Dastlab press-tur ishtirokchilari “O'zmilliybank” AJning Buxoro viloyati Bosh boshqarmasi moliyaviy ko'magida foydalanib kelayotgan “CITY SPORT BUKHARA” MCHJga qarashli sport sog'lomlashtirish markazi faoliyatini birlashtirish.

Mazkur markazda yopiq suzish havzasi, trenajyor, gimnastika zali, tuz bilan davolash, fin saunasi, sog'lomlashtiruvchi massaj xizmatlari yo'lga qo'yilgan. Asosiysi, xizmat ko'rsatish majmuasi o'zining eng ishonchli hamkori — “O'zmilliybank” AJ ko'magida rivojlanib bormoqda.

Bugun sog'lom turmush tarzi xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu bois sport majmualari hamda sog'lomlashtirish markazlariga bo'lgan talab kun sayin ortyapti, — deydi “CITY SPORT BUKHARA” MCHJ direktori Aziz Qorayev. — Bu esa biz tadbirkorlarga aynan shunday xizmatlarni yo'lga qo'yish uchun yangi loyihalarini amalga oshirishga qo'l kelayotir. Mazkur loyihaning umumiy qiymati 16,9 mlrd. so'm bo'lib, shundan bank tomonidan ajratilgan 10 mlrd. so'm miqdoridagi kredit mablag'i evaziga markazni kerakli jihozlar bilan ta'minladik.

Sog'lomlashtirish markazida 50 kishi ish bilan ta'minlangan. Ishchi xodimlar 2 milliondan 7 million so'mgacha ish haqi olmoqda. Asosiysi, tadbirkor mazkur markazni ishga tushirgandan so'ng xizmat ko'rsatish tarmog'ida yana bir nechta loyihalarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Tibbiy xizmat yo'nalishi bo'yicha 66 o'rimga mo'ljallangan “SOFI MED” klinikasi foydalanishga topshirildi. Ushbu tibbiy muassasada kardiologiya, neurologiya, ginekologiya, fizioterapiya, laboratoriya bo'limgari tashkil etilib, malakali shifokorlar mijozlarga xizmat ko'rsatmoqda.

— Avvallari tadbirkor qurilish, ishlab chiqarish, savdo-sotiq sohasining aynan bitta tarmog'ida faoliyat olib borardi, — deydi Aziz Qorayev navbatdagi loyihasi bilan tanishtirar ekan. — Xo'his bo'lsa ham bozordagi raqobat va ba'zi bir to'siqlar tarmoqlarni kengaytirishga yo'l qo'yamasi. Bugun bizni quvontiradigan jihati, ishbilarni yaxshi loyiha va tashabbus bilan chiqsa, bank uni qo'llab-

mazkur binoda 10 dan ziyod fuqarolar ish bilan ta'minlangan. Restoran tarkibida 250 o'rimga mo'ljallangan to'yxona ham mavjud.

— Tadbirkor, eng avvalo, moliyaviy ko'mak kerak, — deya so'zini yakunlaydi Aziz Qorayev. — Bunda bankning Buxoro viloyati Bosh boshqarmasi bilan hamkorligimiz o'zining ijobiy samaralarini beryapti. Kelgusida yana bir qator rejalarni amalga oshirish niyatidamiz. Bank biz, tadbirkorlarni qancha ko'p qo'llab-quvvatlash, istiqbolli loyihalar ustida ishlash, yangi-yangi ish o'rnlari ochishga harakat qilamiz.

**Xizmatlar sohasi — turizmning muhim tarmog'i**

Shu yilning yanvar — sentabr oylarida yiloyatda xizmatlar sohasida 96,7 mingta ish o'rni ochilgan. Shu muddatda xizmatlar hajmi 13,7 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 109,3 foizga o'sirdi. Natijada aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 6,8 mln. so'mga ko'tarildi.

Eng ko'p xizmatlar hajmi Buxoro shahrida 5 trln. 262,5 mlrd. so'm, G'ijduvon tumani — 1 trln. 697,7 mlrd., Vobkent tumani — 816,4 mlrd. hamda Yomitan tumanida 790,6 mlrd. so'mga yetganini kuzatish mumkin.

Shuningdek, joriy yilning 1-oktyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 21 119 taga yetdi. O'tgan yilning shu davrida bu raqam 65,3 foizga teng bo'lsa, joriy yilning 1-oktyabr holatida ushbu ko'rsatkich 68 foiz oshdi.

Joriy yilning dastlabki 9 oyida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar soni 3207 ta bo'lsa, bu o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 864 taga ko'paygan. Xizmatlar sohasining muhim tarmog'i sanaligan turizm hududida keng rivojlangan. Bu esa, o'z navbatida, mehmonxonalariga bo'lgan talabni ham oshiradi. Shu maqsadda “O'zmilliybank” AJ bir qator loyihalarini moliyalashtirib, turizm sohasini izchil qo'llab-quvvatlamog'da.

Xususan, “HOTELAFSONA” MCHJ tomonidan Buxoro shahrida umumiy qiymati 3 mlrd. so'm bo'lgan zamonaviy

shinam ovqatlanish majmualariga talab ortib borayotir. Buxoro azal-azaldan ham mahalliy, ham xorijlik sayyohlarning e'tiborida bo'lib kelgan. Bu yerga kelgan turistlar nafaqat tarixiy obidalar, zamonaviy qulayliklar, balki milliy taomlarga ham qiziqadi. Shu bois navbatdagi loyihamizda bunga alohida e'tibor qaratyapmiz, — deydi tadbirkor Firdavs Sharopov.

Buxoroda azaldan hunarmandchilikning kashtado'zlik, kulochilik, temirchilik, misqarlik, zardo'zlik va zargarlik turlari keng rivojlangan. Ayniqsa, Buxoro zardo'zlik maktabini nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham yaxshi bilishadi. Zardo'zlar betakror uslublar asosida yaratgan naqshu nigorlarning matoda mavjlanib turishi xorijlik sayyohlarni lol qoldiradi. Shu bois bu mahsulotlarga hamisha talab yuqori. “O'zmilliybank” AJ Buxoro viloyati Bosh boshqarmasi ushbu yo'nalishdagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirishda ham ishonchli hamkor.

Mazkur yo'nalishda Buxoro shahrida faoliyat ko'rsatib kelayotgan “ZARDO'Z” MCHJ tomonidan umumiy qiymati 782,5 mlrd. so'm bo'lgan zardo'zlik mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi uchun 500 mln. so'm kredit mablag'i ajratildi. Bunday mahsulotlar ishlab chiqarish xizmati yo'lga qo'yish evaziga 5 ta yangi ish o'rni yaratildi. Bu yerda zarchopon, turli xildagi ayollar liboslari va xonadonlar uchun pardalar tikiladi. Kelgusida korxonada faoliyatini kengaytirish va yangi ish o'rnlari ochish ko'zlanmoqda.

— Texnologiyalar taraqqiy etib borayotgan bugungi davrda qo'l mehnati yanada yengillashdi, — deydi zardo'z Diifuza Arabova. — Bitta to'n avvallari ko'lda bir oyda tikilgan bo'lsa, hozirda Xitoydan olib kelingan zamonaviy uskunalar orqali bir kunda 20 tagacha to'n tayyorlanayotir. Tayyor mahsulotlar yurtimiz bozorlariga, shuningdek, xorijiy sayyohlar orqali chiqib ham yetib boryapti. Buyurtmalar soni esa kun sayin oshib bormoqda.

**Ham sayohat, ham mazmunli hordiq**

Buxoro viloyatida barcha soha singari issiqxonada xo'jaligi ham rivojlanib

ovqatlanish xizmati ham tashkil etilgani e'tiborga molik. Noan'anaviy ushbu dam olish maskanida nafaqat mazali taomlar iste'mol qilish, shuningdek, issiqxonada tarovatdan bahra olish mumkin.

— Har doim ushbu bankning xizmatlaridan foydalanib kelaman, — deydi “VARNET” O'zbekiston — Turkiya xorijiy korxonasining investori Xurshid Enver. — Bizda yetishtiriladigan mahsulotlar shu yerning o'zida sotiladi. Issiqxonamizda dunyoning hamma burchagida o'sadigan 300 turdagi noyob gul va daraxtlar mavjud. Issiqxonada shuningdek, pomidor, bodring, qulupnay, banan, avakado, papaya kabi meva va sabzavotlarni ham yetishtiramiz.

Bundan tashqari, laboratoriya faoliyatini ham yo'lga qo'yilgan. Bu yerga 30 mln. dollarga yaqin investitsiya kiritilgan. Ayni kunda 40 gektar issiqxonada mahsulot yetishtirayotgan bo'lsak, 2026-yilgacha yana 80 gektar maydonda issiqxonaga qurishni rejalashtirganmiz.

Mahalliy aholining sevimli dam olish maskaniga aylangan bu bog'da chindan-da, betakror tabiat manzarasining guvohi bo'ldik. Bu yerda yaratilgan sharoitlar maskanga tashrif buyuruvchilarning ko'ngilli hordiq chiqarishiga, markaz uchun esa yangi ish o'rnlari yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Xullas, ishbilarni rivojlantirish istiqbolli hamkori — “O'zmilliybank” AJ Matbuot xizmati tashabbusi bilan uyushtirilgan press-turda ko'rganlarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, bankning Buxoro viloyati Bosh boshqarmasi ajratayotgan kreditlar ko'magida bugun hududning iqtisodiy o'sishini ko'rsatadigan yuksalib, yangi-yangi loyihalar ishga tushmoqda. Buning natijasida yangi ish o'rnlari yaratilib, aholi farovonligi yanada oshmoqda.

Asosiysi esa — bankning tashabbuskor tadbirkorlar va ilg'or takliflarni har doim qo'llab-quvvatlayotgani. Bunday taklif va tashabbuslar bilan chiqayotgan tadbirkorlik subyektlari safi kengayib borayotgani esa yanada e'tiborga molik. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlarning amaliy ifodasi bank faoliyatida ham yaqqol namoyon. Bu moliyaviy muassasa imkoniyatlari kengayishiga va xalqimiz orasida nufuzi yuksalishiga xizmat qilmoqda.

**Masofadan**

**boshqariladigan bank xizmatiga talab yuqori**

Press-turning ikkinchi kunida G'ijduvon bank xizmatlari markazida mijozlar uchun ko'rsatilayotgan yangi xizmatlar bilan tanishildi.

Bu markaz 1997-yil sentabr oyida 16 nafar ishchi-xodim bilan faoliyat boshlagan. Hozirga kelib 43 nafar yetuk mutaxassis mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatmoqda.

Mazkur markaz tomonidan ajratilgan kreditlar hisobidan “G'ijduvon” erkin iqtisodiy zonasi hududida yirik ishlab chiqarish korxonalari, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish markazlari, umumiy ovqatlanish maskanlari tashkil topdi. Bundan tashqari, “Yangi O'zbekiston” massivida zamonaviy ko'p qavatli turarjoy binolari barpo qilindi.

Tadbirkorlik subyektlariga kredit mablag'lari ajratilishi natijasida 116 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Markazda 22,7 ming mijozga xizmat ko'rsatiladi. Shundan 19,5 mingi jismoniy shaxslar va 3,2 mingtasi yuridik shaxslar hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning jami depozit qo'yilmalari 38,7 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Hozirda bank xizmatlari markazida zamonaviy innovatsion xizmatlar ko'rsatilishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, mijozlarning 71 foizi masofadan boshqariladigan bank xizmatlaridan foydalanmoqda. Bunda hisob raqamlarda bank aylanmalarini hamda xalqaro va milliy plastik kartochkalarda har qanday bank amaliyotlari va to'lovlarni amalga oshirish, onlayn kredit rasmiylashtirish yoki kredit qarzdorligini qoplash, omonat rasmiylashtirish, xorijiy valyutalarda konversion amaliyotlar, pul o'tkazmalari kabi bank xizmatlaridan foydalanish mumkin.

**Imtiyoz — imkoniyatga, imkoniyat — muvaffaqiyatga yo'l ochmoqda**

“O'zmilliybank” AJ xizmat ko'rsatish tarmog'ini qo'llab-quvvatlashda ishbilarni rivojlantirish uchun asosiy moliyaviy hamkor bo'lib kelmoqda. Shu jihatdan olganda, bugungi kunda G'ijduvon tumanida xizmat yo'nalishi bo'yicha 479 tadan ziyod korxonalar faoliyat olib bormoqda.

Xususan, “SAFIRA” MCHJ tomonidan diagnostika va davolash maskani xizmati tashkil etilgan. Ilk faoliyatini 2012-yilda boshlagan klinika rahbari dastavval stomatologiya xizmatini yo'lga qo'ygan edi. 2018-yilda esa tibbiy markazning faoliyati yanada kengaydi.

Bankning moliyaviy ko'magida MSKT, MRT, UZI, rentgen, EKG va laboratoriya tahlillarini o'tkazish imkonini beruvchi tibbiy uskunalar o'rnatildi. Bu yerga kardiologiya, ginekologiya, stomatologiya, urologiya kabi sohalarda malakali va tajribali mutaxassislar jalb qilindi. Hozirgi kunda ushbu tibbiyot muassasasi tomonidan bir kunda o'rta hisobda 300 ga yaqin bemorlarga xizmat ko'rsatiladi. Mazkur klinikada nafaqat G'ijduvon tumani, balki ko'pincha hududlar aholisiga ham xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratilgan. Klinikada 40 dan ortiq ish o'rnlari yaratilgan.

**F. XUDOYBERDIYEV**  
 (“Xalq so'zi”).

Xizmatlar litsenziyalangan.

**Xalq so'zi**

**Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1041.32 699 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taaboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mullifiga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
**100066,**  
**Toshkent shahri,**  
**Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.**  
Navbachi muharrir F. Boborov.  
Musahhib Sh. Mashraboev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonadan chiqishi:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.02 Topshirildi — 00.25 **1 2 3 4 5 6**